



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

KIBR-MAKONDA MA'NAVY XAVFSIZLIK VA YOSHLAR IMMUNITETI

Ximmatov Davlat Axatqulovich

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada kibr-makon sharoitida yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash va ularda mafkuraviy hamda ma'naviy immunitetni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Jahon miqyosida avj olayotgan axborot oqimlari, yot g'oyalar va kibr tahdidlar sharoitida yosh avlodning ongi va qalbini asrashning pedagogik, psixologik hamda axloqiy asoslari yoritilgan. Kibr mahitda ma'naviy tahdidlarni aniqlash, ularga qarshi profilaktik choralar ko'rish, media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kibr-makon, ma'naviy xavfsizlik, yoshlar, mafkuraviy immunitet, axborot tahdidi, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, milliy qadriyatlar.

ДУХОВНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И ИММУНИТЕТ МОЛОДЕЖИ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ

Химматов Давлат Ахаткулович

Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби, доцент

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы обеспечения духовной безопасности молодежи в условиях высокомерия и формирования у них идеологического и духовного иммунитета. Освещены педагогические, психологические и нравственные основы сохранения сознания и сердца молодого поколения в условиях растущих в мировом масштабе информационных потоков, чуждых идей и угроз высокомерия. Даны предложения и рекомендации по выявлению духовных угроз в киберпространстве, принятию профилактических мер против них, развитию медиаграмотности и навыков критического мышления.

Ключевые слова: пространство гордости, духовная безопасность, молодежь, идеологический иммунитет, информационная угроза, медиаграмотность, критическое мышление, национальные ценности.

SPIRITUAL SECURITY AND YOUTH IMMUNITY IN CYBERSPACE

Ximmatov Davlat Axatqulovich

Uzbek National Institute of Musical Art named after Yunus Rajabi, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the issues of ensuring the spiritual security of youth and fostering ideological and moral immunity within the context of arrogance. The pedagogical, psychological and moral foundations of preserving the mind and heart of the younger generation in the conditions of increasing information flows, alien ideas and arrogant threats on a global scale are highlighted. Proposals and recommendations are provided for identifying spiritual threats in the cyber environment, taking preventive measures against them, and developing media literacy and critical thinking skills.

Keywords: pride, spiritual security, youth, ideological immunity, information threat, media literacy, critical thinking, national values.

Zamonaviy axborot muhiti insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borgan murakkab va serqirra makon hisoblanadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar orqali axborot almashinuvi jadallashib, dunyodagi turli g'oyalar, qarashlar va mafkuraviy ta'sirlar tez sur'atlarda tarqalmoqda. Bunday sharoitda inson ongiga turli mazmundagi axborotlarning kirib kelishi tabiiy holdir. Shu bois jamiyat a'zolarida axborotni to'g'ri qabul qilish, uni tahlil qilish va saralash qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy immunitet aynan shu jarayonda insonni turli salbiy ta'sirlardan himoya qiluvchi ma'naviy va intellektual qalqon vazifasini bajaradi. Agar insonda mustahkam dunyoqarash va mustaqil fikrlash shakllangan bo'lsa, u har qanday g'oyani tanqidiy baholay oladi. Bu esa axborot muhitida yuzaga keladigan mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqarorlikni ta'minlaydi. Shuning uchun zamonaviy axborot makonida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda axborot oqimining haddan tashqari ko'payishi inson tafakkuriga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim hollarda axborotdan foydalanish madaniyati yetarli darajada shakllanmagani sababli insonlar yot g'oyalari ta'siriga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun jamiyatda axborot madaniyatini yuksaltirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va sog'lom dunyoqarashni shakllantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Mafkuraviy immunitet insonga axborotni chuqur tahlil qilish, uning manbai va maqsadini anglash imkonini beradi. Natijada shaxs har qanday ma'lumotni so'zsiz qabul qilmay, uning mazmunini baholay oladi. Bu esa jamiyatda sog'lom fikr muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Axborot makonida barqarorlikni ta'minlash uchun har bir insonda intellektual va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash talab etiladi.

Zamonaviy axborot muhitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning asosiy omillaridan biri ta'lim tizimidir. Ta'lim insonda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va axborotni saralash qobiliyatlarini shakllantiradi. Maktab, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar yoshlarda bilimga intilish, dunyoqarashni kengaytirish va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Agar ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash va axborot tahliliga alohida e'tibor berilsa, yosh avlod turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyaga ega bo'ladi. Zamonaviy raqamli ta'lim platformalari, masalan, onlayn kurslar, video leksiylar va interaktiv dasturlar orqali yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularni buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'naviy jihatdan immunitetli qilish mumkin. Bunda milliy tarix, madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni qamrab olgan, turli yoshlarga mos qilib tayyorlangan materiallar alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Shuningdek, ta'lim orqali milliy qadriyatlar, tarixiy meros va umuminsoniy tamoyillar haqidagi bilimlar mustahkamlanadi. Bu esa shaxsning ma'naviy asoslarini kuchaytiradi. Natijada yoshlar axborot muhitida to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oilaning o'rni ham beqiyosdir. Oila inson tarbiyasining ilk va eng muhim maktabidir. Aynan oilada bolaning dunyoqarashi, axloqiy tamoyillari va qadriyatlarga munosabati shakllanadi. Agar oilada ma'naviy muhit sog'lom bo'lsa, farzandlarda vatanparvarlik, mas'uliyat va milliy g'urur kabi fazilatlar rivojlanadi. Bu esa ularni turli yot g'oyalari ta'siridan asrashga yordam beradi.

Zamonaviy axborot muhitida bolalar va yoshlar turli manbalardan axborot qabul qiladi. Shu bois ota-onalar farzandlarining axborotdan foydalanish madaniyatiga alohida e'tibor qaratishi zarur. Oiladagi ma'naviy tarbiya mafkuraviy immunitetning mustahkam poydevorini yaratadi. Jamiyatdagi ijtimoiy muhit ham mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Agar jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik va hamkorlik muhiti shakllangan bo'lsa, insonlar salbiy g'oyalarga kamroq moyil bo'ladi [2]. Ijtimoiy barqarorlik va adolatli munosabatlar insonlarda kelajakka ishonchni mustahkamlaydi. Bu esa jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, mahalla instituti, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari ham ma'naviy muhitni mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Ular orqali aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib boriladi. Bu jarayon jamiyat a'zolarining mafkuraviy barqarorligini oshiradi.

Zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar katta ta'sir kuchiga ega. Ular orqali jamiyatda turli g'oyalari, fikrlar va qarashlar tarqaladi. Agar ushbu vositalar orqali sog'lom va konstruktiv axborot tarqatilsa, jamiyatda ma'naviy barqarorlik mustahkamlanadi [3]. Shu bilan birga, noto'g'ri va buzg'unchi axborotlar ham tez tarqalishi mumkin. Shuning uchun axborot siyosatida mas'uliyat va xolislik muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari jamiyatda sog'lom fikr muhitini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bu esa mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi jamiyatimizda shakllanayotgan zamonaviy axborot muhitida yoshlar mafkuraviy immunitetining zarurati yuzasidan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, kibermakonda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish O'zbekiston jamiyati barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki globalashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida axborot makoni ochiq va tezkor tus oldi. Bunday sharoitda turli g'oyalari va qarashlar jamiyat ongiga tez kirib keladi. Agar aholining axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash qobiliyati yuqori bo'lsa, ular yot va buzg'unchi g'oyalarning ta'siriga tushib qolmaydi. Shuning uchun mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, axborot madaniyatini oshirish va yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda yoshlar aholining katta qismini tashkil etishini inobatga olsak, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish avvalo yoshlar tarbiyasi bilan bog'liqdir. Yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan eng faol foydalanuvchi asosiy qatlam hisoblanadi. Shuning uchun ularni turli

dezinformatsiya, yot g'oyalar va ma'naviy tahdidlardan himoya qilish uchun ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa yosh avlodning sog'lom dunyoqarashga ega bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, jamiyatimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ma'naviy an'analar muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqning ko'p asrlik madaniyati, urf-odatlar va ma'naviy merosi insonlarda vatanparvarlik, milliy g'urur va birdamlik tuyg'ularini rivojlantiradi. Bu esa jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlab, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois milliy merosni asrash va uni yosh avlodga yetkazish mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, kibermakonda barqarorlikni ta'minlashda davlat institutlari, jamoat tashkilotlari, oila va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimli ravishda tashkil etilmoqda, aholi o'rtasida ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan turli dastur va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon jamiyatda sog'lom axborot muhitini shakllantirish va fuqarolarning mafkuraviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlik mustahkamlanadi. Kibermakonda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash va yoshlar ma'naviy immunitetini shakllantirish — bu nafaqat ta'lim yoki oila, balki butun jamiyatning ustuvor vazifasidir. Yoshlar qanchalik ma'naviy jihatdan kuchli bo'lsa, ular turli axborot xurujlariga qarshi shunchalik barqaror tura oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tashanov A. Buzg'unchi g'oyalar va ma'naviy tahdidlar. – Toshkent: Dimal, 2024. – 156 b.
2. Van der Linden S. Foolproof: Why We Fall for Misinformation and How to Build Immunity. – New York: W. W. Norton & Company, 2022.
3. Shultz R., Godson R. Dezinformatsia: Active Measures in Soviet Strategy. – Washington: Pergamon-Brassey's, 1984. – 210 p. – P. 47.